# BO'LAJAK "TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING SPEKTRAL –VARIATIV KOMPONENTLARINI FANLARARO TKOMILLASHTIRISHNING FUNKSIONAL MODELI

***Boymurodova Rayxon Azamadovna***

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*E-mail*: boymurodovarayxon@gmail.com

**Annotasiya:** Mazkur maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida hunarmandchilikning spektral va variativ komponentlarini fanlararo integratsiya asosida o'rganish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalish talabalarda ijodkorlik, amaliy faoliyat, innovatsion yondashuv hamda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Milliy hunarmandchilik xalqning ko'p asrlik tajribasi, madaniy merosi va mehnat an'analarini o'zida mujassamlashtiradi. Spektral va variativ komponentlarini fanlararo integratsiya asosida o'rganish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalish talabalarda ijodkorlik, amaliy faoliyat, innovatsion yondashuv hamda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** milliy hunarmandchilik, kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar, psixologik omillar, texnologiya ta'limi, ijodiy faoliyat, innovatsion texnologiyalar, nazariy metodlar, faoliyat, bilim, amaliy ko'nikma.

# ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО УЛУЧШЕНИЯ СПЕКТРАЛЬНО-ВАРИАТИВНЫХ КОМПОНЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА У БУДУЩИХ "ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ"

**Боймуродова Райхон Азамадовна**

**Аспирантка Шахрисабзского государственного педагогического института**

**E-mail: boymurodovarayxon@gmail.com**

**Аннотация: В данной статье изучение спектральных и вариативных компонентов ремесел на основе междисциплинарной интеграции в процессе подготовки будущих учителей технологий служит развитию профессиональных компетенций. Это направление формирует у учащихся креативность, практическую активность, инновационный подход и уважение к национальным ценностям. Национальные ремесла воплощают многовековой опыт, культурное наследие и трудовые традиции народа. Изучение спектральных и вариативных компонентов на основе междисциплинарной интеграции служит развитию профессиональных компетенций. Это направление формирует у учащихся креативность, практическую активность, инновационный подход и уважение к национальным ценностям.**

**Ключевые слова: национальные ремесла, компетенция, педагогические возможности, психологические факторы, техническое образование, творческая деятельность, инновационные технологии, теоретические методы, деятельность, знания, практические навыки.**

# FUNCTIONAL MODEL OF INTERDISCIPLINARY IMPROVEMENT OF SPECTRAL-VARIATIVE COMPONENTS OF NATIONAL CRAFTSMANSHIP IN FUTURE "TECHNOLOGY TEACHERS"

**Boymurodova Raykhon Azamadovna**

**Base doctoral student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute**

**E-mail: boymurodovarayxon@gmail.com**

**Abstract:** This article analyzes the psychological and pedagogical possibilities of forming and developing students' competencies in national crafts in the educational process. During the study, the importance of craft activities in developing students' creative thinking, practical skills and personal qualities was highlighted. Also, effective methods of using craft elements in the process of technology education were

considered. The results of the study showed that integrating national crafts into the educational process increases students' interest and creative activity.

**Keywords:** national crafts, competence, pedagogical possibilities, psychological factors, technology education, creative activity, innovative technologies, theoretical methods, activity, knowledge, practical skills.

**Kirish** Ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, texnologiya ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni milliy hunarmandchilik asosida tayyorlash ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.Milliy hunarmandchilik xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va amaliy faoliyatining mahsuli sifatida yosh avlodni mehnatsevarlik, estetik did va ijodkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, hunarmandchilik faoliyati turli fanlarga oid bilimlarning integratsiyasini talab qiladi. Masalan, yog‘och o‘ymakorligida geometrik qonuniyatlar, kulolchilikda fizik jarayonlar, kashtachilikda ranglar uyg‘unligi va kompozitsiya qonunlari muhim ahamiyatga ega.Bugungi kunda milliy hunarmandchilikning spektral va variativ komponentlarini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Tadqiqot metodlari Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va faoliyatli yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, modellashtirish va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini texnologiya ta’limi mazmunini milliy hunarmandchilik elementlari bilan boyitish hamda fanlararo integratsiya asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot natijasida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida milliy

hunarmandchilikning spektral va variativ komponentlarini rivojlantirishning funksional modeli ishlab chiqildi.Model quyidagi bloklardan iborat:

Maqsadli blok- milliy hunarmandchilik bo‘yicha bilimlarni shakllantirish;-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish; kreativ fikrlashni takomillashtirish; fanlararo tafakkurni rivojlantirish.

Spektral komponentlar:
- tarixiy-madaniy bilimlar;
- texnologik bilimlar;
- estetik bilimlar;
- innovatsion faoliyat;
- pedagogik kompetensiyalar.

Variativ komponentlar:
- kulolchilik;
- kashtachilik;
- zardo‘zlik;
- yog‘och o‘ymakorligi;
- misgarlik;
- to‘quvchilik.

3. Tashkiliy-faoliyatli blok
- loyiha metodi;
- STEAM yondashuvi;
- Art texnologiya;
- muammoli ta’lim;
- amaliy mashg‘ulotlar;
- ustoz-shogird metodikasi.

4. Natijaviy blok
- kasbiy kompetentlik;

- kreativ faoliyat;
- amaliy tayyorgarlik;
- fanlararo integrativ tafakkur;
- milliy qadriyatlarga sodiqlik.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, milliy hunarmandchilik va kompetensiyaviy ta’limga oid ilmiy adabiyotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bu orqali mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlar hamda pedagogik tajribalar o‘rganildi. Shuningdek, texnologiya ta’limi darslarida milliy hunarmandchilik elementlaridan foydalanish jarayoni pedagogik kuzatuv asosida tahlil qilindi. O‘quvchilarning amaliy faoliyati, topshiriqlarni bajarish jarayoni va ijodiy yondashuvi kuzatildi.

Tadqiqot davomida taqqoslash va umumlashtirish metodlari ham qo‘llanildi. Olingan natijalar tizimlashtirilib, ularning pedagogik samaradorligi baholandi. Tadqiqot jarayonida talaba va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik holatlari ham hisobga olindi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy hunarmandchilik elementlarini ta’lim jarayoniga kiritish talaba va o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, hunarmandchilik faoliyati talaba va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Amaliy ish jarayonida talaba va o‘quvchilar buyum yaratishning turli usullarini o‘rganib, yangi g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ikkinchidan, hunarmandchilik asosidagi mashg‘ulotlar talaba va o‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Turli materiallar bilan ishlash jarayoni talaba va o‘quvchilarda aniqlik, sabr-toqat va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.

Uchinchidan, milliy hunarmandchilikni o‘rganish o‘quvchilarda milliy

madaniyatga qiziqish uyg‘otadi. Hunar turlarining tarixiy va madaniy ahamiyatini anglash yoshlarning milliy o‘zligini tushunishiga yordam beradi.[4,5]

Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar orqali talaba va o‘quvchilarning mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Talaba va o‘qituvchi orasidagi o‘zaro harakatlar o‘quv va darsdan tashqari faoliyatlar doirasida amalga oshiriladi

**MUHOKAMA**

Ishlab chiqilgan model texnologiya ta’limi jarayonini milliy hunarmandchilik asosida tashkil etish imkonini beradi. Fanlararo integratsiya natijasida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, muammolarni kreativ hal qilish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, model texnologiya ta’limining mazmunini boyitish, milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**XULOSA**

Xulosa qilib, Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida milliy hunarmandchilikning spektral va variativ komponentlarini fanlararo integratsiya asosida takomillashtirish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Taklif etilgan funksional model texnologiya ta’limi samaradorligini oshirishga, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashga va milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1.Shomirzayev M.X. O‘qitish texnologiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
7. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
8. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya. – Moskva, 2019.
9. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – Moskva, 2018.
10. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva, 2020.
11. UNESCO. Technical and Vocational Education and Training for the Twenty-First Century. – Paris, 2021.
12. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2022.
13. Dewey J. Experience and Education. – New York, 2019.
14. Kolb D. Experiential Learning. – New Jersey, 2020.
15. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York, 2018.Maqolani